

DIKTANT YORDAMIDA ORFOGRAFIK VA GRAMMATIK BILIMLARNI MUSTAHKAMLASHNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim ona tili darslarida diktant yordamida orfografik va grammatik bilimlarni mustahkamlashning ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Unda diktant yozish jarayoni o'quvchilarning nafaqat imloviy, balki grammatik, fonetik va leksik bilimlarini mustahkamlashga xizmat qilishi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, ona tili, imlo, imloviy savodxonlik, diktant, ta'limiy diktant, nazorat diktanti, orfografik bilim, grammatik bilim, imlo qoidasi.

ВАЖНОСТЬ ЗАКРЕПЛЕНИЯ ОРФОГРАФИЧЕСКИХ И ГРАММАТИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ С ПОМОЩЬЮ ДИКТАНТА

Аннотация. В данной статье рассматривается важность закрепления орфографических и грамматических знаний с помощью диктанта на уроках родного языка в начальном образовании. Показано, что процесс написания диктантов служит закреплению не только орфографических, но и грамматических, фонетических и лексических знаний учащихся.

Ключевые слова: начальное образование, родной язык, орфография, орфографическая грамотность, диктант, учебный диктант, контрольный диктант, орфографические знания, грамматические знания, правила орфографии.

THE IMPORTANCE OF STRENGTHENING ORTHOGRAPHIC AND GRAMMATICAL KNOWLEDGE USING DICTATION

Abstract. This article discusses the importance of strengthening spelling and grammatical knowledge using dictation in primary education native language lessons. It shows that the process of writing dictations serves to strengthen not only spelling, but also grammatical, phonetic and lexical knowledge of students.

Keywords: primary education, native language, spelling, spelling literacy, dictation, educational dictation, control dictation, spelling knowledge, grammatical knowledge, spelling rules.

Zamonaviy ta'lim tizimida ta'lim-tarbiyaga bo'lgan yondashuv sezilarli darajada takomillashib, yangi bosqichga ko'tarilgan. Yoshlarda har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllanish uchun zarur bo'lgan fazilatlarini tarbiyalash jarayonida ayniqsa boshlang'ich ta'lim bosqichidagi ona tili darslarining o'rni beqiyosdir. Ushbu darslar orqali nafaqat fan asoslariga oid dastlabki bilimlar beriladi, balki o'quvchilarda turli ko'nikma va malakalar – og'zaki va yozma nutq, tafakkur, muloqot madaniyati kabi jihatlar ham shakllantiriladi.

Ona tili ta'limining bosh maqsadi — o'quvchilarda ijodiy yondashuvni, mustaqil fikrlashni, og'zaki va yozma nutqda fikrni aniqlik bilan bayon eta olish malakasini shakllantirishdir. Bunda o'quvchining fikr ifodasi nafaqat grammatik jihatdan to'g'ri, balki mazmunan aniq, mantiqan asosli va uslubiy jihatdan mos bo'lishi ta'minlanadi.

Boshlang'ich sinf ona tili ta'limining eng muhim vazifalaridan biri — o'quvchilar savodxonligini oshirish va ularda imloviy malakalarni shakllantirishdan iborat. Bu jarayon esa o'z mohiyatiga ko'ra murakkab va ko'p bosqichli faoliyat bo'lib, o'quvchilarning yosh xususiyatlari,

psixologik va fiziologik imkoniyatlari, bilish darajasi bilan bevosita bog'liq. Shu sababli imlo o'rgatish metodikasi ikki asosiy sohaga – psixofiziologik va lingvistik yondashuvlarga asoslangan bo'lishi zarur.

Psixofiziologik yondashuvda bolaning eshitish, ko'rish, idrok qilish, diqqatni jamlay olish kabi individual imkoniyatlari e'tiborga olinadi. Lingvistik yondashuv esa imloviy qoidalarni anglash, tahlil qilish va amaliy qo'llashda tilshunoslik qonuniyatlariga asoslanadi. Shu ikki yo'nalish uyg'unligida olib borilgan darslar natijasida bolalarda imloviy savodxonlik mustahkamlanadi va ular o'z fikrini yozma shaklda erkin ifodalashga erishadilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma savodxonligini shakllantirishda diktant mashqlari muhim o'rin tutadi. "Diktant" so'zi lotincha "dicto" – "aytmoq, talaffuz qilmoq" ma'nolarini anglatadi. Diktant bu o'qituvchi tomonidan og'zaki aytilgan matnni o'quvchilar tomonidan yozma ravishda ifoda etish jarayonidir.

Diktant orqali o'quvchilar eshitgan so'z va gaplarni yozma shaklda ifodalashni o'rganadilar. Bu jarayon ularning nafaqat imloviy, balki grammatik, fonetik va leksik bilimlarini mustahkamlashda xizmat qiladi. O'quvchi diktant yozishda xatoga yo'l qo'ymaslikka harakat qiladi, bu esa ularning nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etish ko'nikmasini shakllantiradi. Xato qilinmasligi –

imlo, grammatik qoidalar, so'z tuzilishi va talaffuzga oid bilimlar qanchalik puxta egallanganiga bog'liq.

Shuni unutmaslik kerakki, imlo ko'nikmalari grammatik bilimlar bilan chambarchas bog'liq. Shu bois diktant yozishda savodli bo'lish uchun o'quvchi til birliklarini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi zarur.

Boshlang'ich sinflarda diktant matni tanlanayotganda quyidagi mezonlarga e'tibor berilishi lozim:

1. Matnning monologik shaklda bo'lishi, bunda ko'chirma gaplar, kirish so'zlar, undalmalar va murakkab gaplar bo'lmasligi kerak.
2. Matn hajmi o'quvchilarning yosh xususiyatlari va yozuv sur'atiga mos bo'lishi zarur.
3. Matn mazmuni o'quvchilarning hayoti va kundalik tajribasi bilan bog'langan bo'lishi lozim.
4. Matn ma'lumot beruvchi, ta'limiy mazmunga ega bo'lishi kerak.
5. G'oyaviy-badiiy jihatdan yuqori darajada bo'lishi va bolalarda ijobiy tuyg'ularni uyg'otishi lozim.
6. Tarbiyaviy xususiyatga ega bo'lishi zarur.
7. Diktant orqali o'rganilayotgan til hodisasi matnda kamida 5–6 marta takrorlanuvchi tarzda aks etgan bo'lishi kerak.

Diktantlar maqsadiga qarab quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Ta'limiy diktant – o'quvchining bilimini mustahkamlashga yo'naltirilgan mashq turi bo'lib, yozuv orqali grammatik va imloviy ko'nikmalarni rivojlantiradi.
2. Nazorat (tekshiruv) diktanti – o'quvchilarning oldingi bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish, aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Diktant mashqlari orqali o'quvchilarda orfografik hamda grammatik bilimlarni qisqa muddat ichida yozma nutqqa tatbiq etish ko'nikmasi shakllanadi. Bu jarayon o'quvchining aqliy faoliyati va diqqat-e'tiborini bir vaqtning o'zida ishga solishni talab qiladi. O'quvchilar diktant yozayotganda nafaqat eshitganlarini yozishga, balki so'zlarning imlosini ongli ravishda idrok qilishga, shu bilan birga ilgari o'rganilgan grammatik va orfografik qoidalarni eslab qolgan holda to'g'ri yozishga harakat qilishadi. Bunday faoliyat o'z navbatida mustahkam nazariy bilim va avtomatlashtirilgan ko'nikmalar mavjud bo'lishini talab etadi.

Diktantning turli shakllari o'quvchilarning mustaqil, to'g'ri va xatosiz yozuv malakalarini shakllantirishda o'qituvchiga samarali metod vositasi sifatida xizmat qiladi. Bu mashqlar orqali o'quvchilarga tilga oid nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmasi beriladi, ularning imloviy xatolari va ularning sabablari aniqlanadi. Diktant orqali o'quvchilarning muayyan grammatik mavzularni qay darajada o'zlashtirganlik darajasini ham aniqlash mumkin. Shu bois,

212 ilg'or pedagoglar amaliyotda diktant usulidan keng foydalanib, uni ta'lim jarayoniga tobora chuqurroq singdirmoqdalar.

Shuningdek, diktant mashqlari orfografik bilimlarni takrorlash, bir yoki bir nechta mavzu doirasidagi bilimlarni sinash va mustahkamlash imkonini beradi. Diktant orqali o'quvchiga orfografik bilim berish va shu bilimlarni yozma ishda sinovdan o'tkazish imkoni yaratiladi.

Ayniqsa, ta'limiy diktantlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular orfografik va grammatik bilimlarni mustahkamlash, nazariy ma'lumotni ongga singdirish, va uni amalda, ya'ni yozishda qo'llashga o'rgatishga qaratilgan. Bunday diktantlar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida faol muloqot orqali amalga oshiriladi. Diktant yozishdan avval, o'quvchilarga tegishli mavzular eslatiladi, muhim so'zlarning to'g'ri yozilishi tushuntiriladi. O'qituvchi ishonch hosil qilganidan so'ng, o'quvchilarga ushbu so'zlarni mustaqil yozishga ruxsat beriladi.

Ba'zan esa, diktant jarayonida o'quvchilarga imlosi noma'lum bo'lgan so'zlarni o'qituvchidan so'rab olish yoki diktantdan so'ng bu so'zlarning imlosini aniqlab, xatoni tuzatish imkoniyati ham yaratiladi. Bunday yondashuv o'quvchilarda orfografik hushyorlikni kuchaytiradi, so'zlarning noto'g'ri shaklining ongda mustahkamlanib qolishining oldini oladi va ularni xatosiz yozishga yo'naltiradi.

Ta'limiy diktantlarni qachon va qanday shaklda o'tkazishni o'qituvchining o'zi belgilaydi. Ular uchun darsning 5–10 daqiqasi ajratilishi mumkin, ba'zida butun dars diktantga bag'ishlanadi. Diktantdan oldin o'qituvchi o'quvchilarga nazariy bilimni chuqurroq tushuntiradi, tahliliy usullardan foydalangan holda so'zlarning to'g'ri yozilishiga ishonch hosil qiladi. Shundan keyin diktant yozishga ruxsat etiladi.

Misol tariqasida, 1-sinfda "a" va "o" unlilari o'rganilayotgan darsda bo'g'in-tovush hamda harf-tovush tahlili o'tkaziladi. Masalan, "baho", "bahor" kabi so'zlarning birinchi bo'g'inida "a" harfi ishlatilganini o'quvchilar idrok etgach, u so'zlar doskaga yoziladi, keyin o'chirib tashlanib, og'zaki aytilgan holatda qaytadan yozdiriladi. Bu usul o'quvchilarda orfografik xotirani kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ta'limiy diktantlar o'zida nafaqat o'quvchilarda orfografik ko'nikmalarni shakllantirish vazifasini, balki ularning bilim darajasini aniqlash, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish imkonini ham mujassamlashtiradi. Diktant jarayonida o'qituvchi suhbat usulidan foydalanib, o'quvchilarning bilimidagi bo'shliqlarni, xatoga moyil so'zlarni aniqlashi, ularga zudlik bilan tuzatish choralari ko'rish mumkin.

Bu turdagi diktantlar ko'p hollarda yangi mavzuni yakunlab, uni mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi. O'qituvchi avvalo o'quvchilarga mavzuga oid asosiy qoidalarni eslatadi, kerakli so'zlarning yozilishi darslik yoki doska orqali namoyish etiladi. Zarur holatlarda, ayrim so'zlarning imlosi og'zaki sharhlanadi yoki o'quvchilarning o'zlari tomonidan grammatik qoidalar asosida tushuntirib berilishi so'raladi. Ushbu yondashuv diktantni mustahkamlovchi mashq sifatida olib borishga imkon yaratadi.

Mazkur diktant turini yozish davomida o'quvchilar o'zlarining nazariy bilimlarini yozma nutqda mustaqil qo'llashga intilishadi. Bu esa ularni mustaqil fikrlashga, orfografik qoidalar asosida xulosaga kelishga undaydi. Natijada, o'quvchilarda anglagan holda bilim olishga, ya'ni o'zlashtirilayotgan bilimni chuqurroq tushunishga zamin yaratiladi.

Shuningdek, avvalgi darslarda berilgan bilimlarni yanada mustahkamlash, o'quvchilarning bilimidagi bo'shliqlarni aniqlash va ularni bartaraf etish maqsadida ham ta'limiy diktantlardan foydalanish mumkin. Bunday holatda o'qituvchi o'quvchilarning mustaqil fikrlashga o'rgatilishiga alohida e'tibor qaratadi, ularga o'z xatolarini aniqlash va tuzatish, nazariy bilimlarni o'z yordamisiz yozuvga tatbiq etish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva Z. Yozma nutqni rivojlantirishda diktant turlari va ularning o'rni // Ilm-fan va ta'lim, 2021, №4. – B. 92–96.

2. Eshonqulova D., Rahmatova G. Diktantlar to‘plami.- Toshkent: Oltin qalam nashriyoti, 2023. – 216 b.
3. Umarova M. O‘quvchilarning imloviy malakalarini rivojlantirish// Boshlang‘ich ta’lim, 2005, 3-son. – B. 42-43.
4. Kuranov S.D. Ona tili. 2-sinf. I qism. – Toshkent: Novda edutainment, 2023. – 88 b.
5. Toirov M.E. Ona tili. 3-sinf. I qism.- Toshkent: Novda edutainment, 2023. – 66 b.
6. Toirova M.E. Ona tili. 3-sinf. II qism.- Toshkent: “Novda edutainment”, 2023. – 88 b.